



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH QOIDALARI

**Tosheva Zarnigor Odilovna**

*Bank moliya akademiyasi Moliya va moliyalarni boshqarish fakulteti 22-17  
guruh talabasi*

**Markaziy bank Boshqaruvi «O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorni qabul qildi.<sup>1</sup>**

Xalqaro amaliyotga muvofiq Qoidalar bilan valyutani tartibga solish sohasidagi qonunosti hujjatlari normalarini birxillashtirish yo'li bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning yagona tartibi belgilandi. 5 ta normativ-huquqiy hujjatning o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibining soddalashtirilishiga zamin yaratadi.

Hujjat bilan quyidagilar tartibga solingan:

- tijorat banklari tomonidan rezidentlarning va norezidentlarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlarini yuritish;
- ichki valyuta bozorida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini amalga oshirish;
- jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish;
- O'zbekiston hududida naqd chet el valyutasini qabul qilish;
- tijorat banklari tomonidan naqd valyuta mablag'larini O'zbekiston hududidan olib chiqish va olib kirish.

Qoidalar bilan quyidagi yangiliklar joriy etilmoqda:

*Birinchi*dan, quyidagi normalar bekor qilindi:

- jismoniy shaxslardan valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun pasport nusxasini taqdim etish talab etilardi;
- banklarning mijozlari bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida ortiqcha vaqt va hujjatlar talab etilardi;
- valyuta birjasi savdolarida ishtirok etish uchun mijozning hisobvaraqlarida albatta mablag'lar zaxirasi mavjud bo'lishi talab etilardi.

Markaziy bankning valyuta ayirboshlash shoxobchalarini ro'yhatga olish va ularga guvohnomalar berish amaliyoti bekor qilinmoqda.

*Ikkinchi*dan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mablag'larni ayirboshlash jarayoni, shuningdek banklar tomonidan ularning chet el valyutasini sotib olish uchun arizalarini ko'rib chiqish tartibi soddalashtirildi.

---

<sup>1</sup> 31.08.2020 yilda [3281](#)-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan.





balanslari tarkibi, xususan, xorijiy valyutadagi majburiyatlari va aktivlarining muddat va miqdor jihatdan mutanosibligi omillarini hisobga olish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bankovskiy menedjment. Pod red. prof. O.I. Lavrushina. Uchebnik. 5-e izd. – M.: KNORUS, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri). – T., 2003 yil 11 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to‘g‘risida»gi qonuni. – T., 1995 yil 26 dekabr.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.